



YURAK ISHEMIK KASALLIKLARI REABILITATSIYASIDA MAGNITOTERAPIYANING TUTGAN O'RNI

Amrillaev Ulug'bek Sherzodovich, Axmedov Ibrat Amrillaevich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Samarqand, O'zbekiston

Tadqiqotning maqsadi. Yurak ishemik kasalligi bo'lgan bemorlarni sanatoriya sharoitida davolanish davomida magnitoterapiya terapiyasining samaradorligini o'rganish.

Tadqiqod materiallari va usullari. Tadqiqotda yurak ishemik kasalligi barqaror zo'riqish stenokardiyasi I-II FS bilan 55 yoshdan 78 yoshgacha bo'lgan bemorlarda tadqiqot olib borildi. Bemorlar ikkita guruhga ajratildi: birinchi guruhdagi 38 nafar bemorlarda standart davolash usuliga qo'shimcha ravishda magnitoterapiya qo'llanildi, ikkinchi guruhdagi 30 nafar bemor esa standart davolash muolajalari qo'llanildi. Tekshiruvda bemorlarda 6 daqiqalik yurish testi va FS-36 so'rvnomasi yordamida hayot sifati o'rganildi.

Tadqiqot natijalari. 1-guruhdagi bemorlarda davolanishdan keyin 6 daqiqa mobaynida bosib o'tilgan masofa $417,8 \pm 24,0$ m ni tashkil etdi, bu dastlabki ma'lumotlarga nisbatan 23,0% ga ko'p hisoblanadi ($p < 0,001$). 2-guruhdagi bemorlar ko'rsatkichlarida statistik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'zgarishlar kuzatilmadi. 1-guruhdagi bemorlarda FS-36 so'rvnomasi natijalari asosida jismoniy faoliyat 20,6% ($p < 0,001$) va ruhiy faoliyatning 38,0% ga ($p < 0,001$) ijobiy dinamikasi aniqlandi. Bemorlarning o'z-o'zini baholashida ijobiy natijalar 23,1% ga ($p < 0,001$) oshdi. 2- guruhdagi bemorlarda FS-36 so'rvnomasi natijalarida o'zgarish deyarli sezilmadi.

Xulosa. Yurak ishemik kasalligini davolashda magnitoterapiyani qo'llash bemorlarda jismoniy mashqlarga bardoshliliginizi oshirib, ularning hayot sifatini ijobiy tomonga o'zgartirish imkonini beradi.